



THE HISTORY OF THE ESTABLISHMENT OF THE ISUZU AUTOMOTIVE COMPANY

Nazarov Alisher Ismoilovich,

Specialized Training Center of the National Guard of the Republic of Uzbekistan Instructor of the Combat and Material Technical Support Training Cycle, JV employee

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17379055>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 15th October 2025

KEYWORDS

Isuzu, Wolseley Motors company, diesel engines, land of the samurai, gas-electric industry, global industry, injection system, sports car, D-Max pickups, world-class brand, corporation, technological partner.

ABSTRACT

This article presents the timeline of the ISUZU automobile industry from its inception to the present day, within the context of the currently developing global automotive sector. It highlights the history of the establishment of the ISUZU automobile plant in Japan — a country known for its world-renowned automotive brands — including the production of the first diesel-engine trucks and the world's first diesel engines developed for passenger cars. The article also discusses the significant role of ISUZU in the automotive industry of our country.

ИСТОРИЯ СОЗДАНИЯ АВТОМОБИЛЕСТРОИТЕЛЬНОЙ КОМПАНИИ ISUZU

Назаров Алишер Исмоилович,

Специализированный учебный центр Национальной гвардии Республики Узбекистан Инструктор цикла подготовки по боевому и материально-

техническому обеспечению, сотрудник СП

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17379055>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025

Accepted: 10th October 2025

Online: 17th October 2025

KEYWORDS

Isuzu, компания «WolseleyMotors», дизельные двигатели, земля самураев, газоэлектрическая промышленность, мировая промышленность, система впрыска, спорткар, пикапы D-Max, бренд мирового уровня, корпорация, технологический партнер.

ABSTRACT

В данной статье показаны времена от начала автомобильной промышленности ISUZU до настоящего времени в развивающейся в настоящее время автомобильной промышленности. В этом история становления автозавода ISUZU в автомобильной промышленности Японии, страны с мировым брендом, первых грузовиков с дизельными двигателями и первых дизельных двигателей, созданных для легковых автомобилей в мире, а также показана роль этой компании в автомобильной промышленности нашей страны.



ISUZU AVTOMOBILSOZLIGINING YARATILISHI TARIXI

Nazarov Alisher Ismoilovich,

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi
Jangovar va moddiy texnik ta'minot tayyorgarligi sikli o'qituvchisi, QK xizmatchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17379055>

ARTICLE INFO

Received: 05th October 2025
Accepted: 10th October 2025
Online: 17th October 2025

KEYWORDS

Isuzu, «Wolseley Motors» kompaniyasi, dizel dvigatellari, samuraylar yurti, gaz-elektro sohalari, dunyo sanoati, purkash tizimi, sportkar, D-Max pikaplari, jahon darajasidagi brend, korporatsiyas, texnologik hamkori.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi davrda rivojlanayotgan avtomobilsozlik sanoatida ISUZU avtomobilsozligining ilk yaralishidan hozirgi kungacha bo'lgan vaqtlar namoyon ettirilgan. Bunda dunyo brendiga ega bo'lgan kunchiqar mamlakati Yaponiya avtomobil sanoatidagi ISUZU avtomobil zavodining tashkil topishi tarixi, unda ishlab chiqarilgan ilk dizel dvigatelidagi yuk avtomobillari va dunyoda birinchilardan bo'lib yengil avtomobillar uchun yaratilgan dizel dvigatellari, hamda mazkur kompaniyaning mamlakatimizdagi avtomobil sanoatida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Kirish (Introduction). Kompaniya tarixi 1916-yilda, avtomobillar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «Tokyo Ishikawajima Shipbuilding and Engineering CO.» sanoatlashgan guruhi tashkil topganda boshlangan. Kompaniya 1916-yilda Angliyaning «Uspeli» namunasi bo'yicha birinchi yengil avtomobilni yig'gan. Kompaniya zavodida 1918-yildan boshlab yuk avtomobillarini yig'ish boshlangan. Ishlab chiqarilgan birinchi rusum A-9 deb nomlangan. 1928-yilda «Ishikavadzima»da to'liq yapon konstruksiyasi tug'ilgan. Ushbu firmaning barcha modellari «Sumida» deb nomlangan.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** 1933-yilda Ishikawajima Automotive Works kompaniyasi, Dot Automobile Manufacturing Inc. kompaniyasi bilan qo'shilgandan so'ng, ushbu alyans «Automobile Industries Co Ltd.» nomini oldi, o'sha yili savdo va sanoat vazirligi uchun ishlab chiqarilgan yuk avtomobili, Yaponiyadagi daryolardan birining nomi -«ISUZU» degan nomga ega bo'ldi. Keyinchalik 1934-yilda «Automobile Industries Co kompaniyasi»da, dizel dvigatellari sohasida izlanishlar olib borish bo'yicha qo'mita(komitet)ga asos solindi - bu o'sha paytdagi kompaniya prezidenti bo'lgan Tomonosuke Kanoning ish siyosatining bir qismi bo'lgan. Ikki yildan so'ng esa, ya'ni 1936-yilda Yaponiyada birinchi havo sovutgichli dizel dvigateli - DA6 dunyoga keldi. Bu Yaponiyada dizel dvigatellari rivojlanish tarixida ulkan muvaffaqiyat bo'ldi. 1937-yilda esa «Automobile Industries» yana ikkita kompaniya bilan birlashdi va o'z nomini «Tokyo Automobile Industries Co., Ltd» deb o'zgartirdi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** 1945-yil oktyabrda, Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng, benzin yonilg'isida yuradigan yuk avtomobili TX40 (2-rasm) va dizel yoqilg'isida harakatlanadigan yuk avtomobili TU60 ishlab

chiqarish qayta boshlandi. TX61 yuk avtomobillaridan, urushdan keyingi Yaponiyani vayronalardan qayta tiklash vaqtida keng foydalanilgan.



1-rasm. II-jahon urushidan keyingi yillarda «WolseleyMotors» kompaniyasi bilan hamkorlikda Yaponiyada ishlab chiqarilgan havo sovutkichli dizel dvigateli bilan harakatlanuvchi TX80 yuk avtomobili modeli.

1949-yilda kompaniya o'zining hozirgi «Isuzu Motors Limited» nomiga ega bo'ldi. 1950-yilda ISUZU kompaniyasi Yaponiyada birinchi DA80 - suvli sovutgichli V8 dizel dvigateli ishlab chiqdi, hamda o'zining yaxshilangan xarakteristikasi sababli avtosanoatda qiziqish uyg'otgan, mukammal tuzilishdagi to'g'ridan-to'g'ri purkash tizimiga ega yonish kamerasini yaratdi.

1953-yilda ingliz kompaniyasi Rootes bilan texnik ko'maklashish bo'yicha kelishuv imzolab, ISUZU kompaniyasi o'zining, ingliz avtomobili Hillmanning nusxasi bo'lgan birinchi yengil avtomobilini ishlab chiqardi. 1959-yilda 2-tonnalik Elf nomli yuk avtomobilini ishlab chiqardi, ushbu avtomobil tejamli dizel dvigateli DA640 o'rnatilganligi, yuk ko'tarishi va uzoq muddat xizmat qila olishi, turli yo'llardan o'ta olish xususiyati sababli, juda yaxshi sotila boshlandi.

60-yillar oxirida ISUZU dizel yonilg'isida harakatlanuvchi jahondagi ilk sportkar - 117 Coupe modelini yaratgan (3-rasm).



117 Coupe modelidan 1972-yilda 965 ta sotilgan bo'lsa, 1974-yilda bu ko'rsatkich 9506 tani tashkil etgan.

1961-yilda ISUZU, yengil avtomobillar uchun, 1991 kub.sm xajmga ega DL201 birinchi dizel dvigateli ishlab chiqardi, va bu uchun Yaponiyaning injener-mexaniklar



Jamiyatidan mukofot oldi.

1962-yil - Fudjisava zavodi ochildi, keyingi yil esa Bellett yengil avtomobili taqdim etildi. 1966-yilda Tailanddagi bo'linmaga asos solindi, 1967-yil - Florian yengil avtomobili va Yaponiyada birinchi bor yuk avtomobillari uchun 4-taktli to'g'ridan-to'g'ri purkagichli dizel dvigateli taqdim etildi. 1968 yil - 117 Coupe yengil avtomobil rusumi paydo bo'ldi.

1971-yil ISUZU o'z aksiyalarining 34,2 foizini Amerika korporatsiyasi bo'lgan General Motorsga sotdi. Ushbu hamkorlik natijasida 1974 yili Gemini yengil avtomobili dunyo yuzini ko'rdi.

1975-yil ISUZU Motors America - AQSHdagi bo'linmaga asos solindi. 1977 yil tejimli dizel dvigatelli Florian rusumi ishlab chiqarildi, 1979 yili esa - dizelli Gemini ishlab chiqarildi.

1980-yil - Fargo seriyasidagi mikroavtobuslar chiqarildi. 1981-yil - Piazza modeli paydo bo'ldi (3-eshikli kupe).

1983-yil - Aska (Florian) yengil avtomobillar sotuvga chiqarildi. O'sha yili Aska, RAC ingliz rallisida birinchi o'rinni egalladi.

ISUZU o'zining birinchi yo'ltanlamas avtomobilini 1985-yilda ishlab chiqardi va u Rodeo Bighorn bo'lib eksport uchun boshqa - Trooper nomini oldi. Ushbu rusum Mitsubishi Pajero bilan raqobatlashadi, shuning uchun konstruksiyasining o'xshash bo'lishi aniq edi, biroq yangi Pajero ancha ilgari ketganligi sababli ISUZU unga yetib olishga intildi.

1989-yil - yangi turdagi MU (Amigo) yo'ltanlamas avtomobilining taqdimoti bo'lib o'tdi. 1990-yil AQSHdagi SIA (Subaru bilan qo'shma loyiha - Subaru-Isuzu Automotive Inc.) zavodida Rodeo rusumini ishlab chiqarish boshlandi. Amigo/ Rodeo/ MU/ Wizzard rusumlarining ikkinchi avlodi (1998-yildan boshlangan) "parketli" yo'ltanlamas sinfiga mansub. Hattoki bazaviy turlari ham orqa g'ildirak uzatmalidir. Nomlarining ko'pligi, maxalliy sharoitlarga moslashtirilib sotilayotgan bozorlarning ko'psonligida ham o'z aksini topmoqda.

90-chi yillarda ISUZU bir qator ralli poygalarida g'oliblikni egalladi. O'sha vaqtga kelib ISUZU o'rta va og'ir yuk avtomobillari ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni chiqib oldi.

1997-yilda Trooper bazasidagi Vehi Cross nomli - yangi yo'ltanlamas rusumi paydo bo'ldi, uning dvigatel xajmi 3,2 l, quvvati 215 l.s. edi. Ikki yildan so'ng Vehi Cross amerika bozorlarida birinchi bor paydo bo'ldi. 1999-yil frankfurt avtosalonida ochiq kuzovli (tog' sayri velosipedlarini tashish uchun maxsus o'rnatilgan yukxona) Vehi Cross bazasidagi konsept taqdim etildi, 2000 yilda esa Detroytda 5-eshikli varianti birinchi bor taqdim etildi.

1998-yil krizis holatiga tushib qolgan kompaniya yengil avtomobillarni ishlab chiqarishni boshladi. Yuqori o'tuvchanlik xususiyatiga ega Frontera avtomobilini Opel firmasi uchun ishlab chiqara boshladi. O'sha vaqtning o'zida siqilgan tabiiy gazda harakatlanadigan Elf CNG yuk avtomobilini ommaviy tarzda ishlab chiqarishni boshladi.

O'sha vaqtda General Motors, ISUZU dagi o'z ulushini 49 % gacha oshirdi va Polshadagi - Isuzu Motors Polska bo'linmasi o'z faoliyatini boshladi.



Aynan (SUV) yo'ltanlamas avtomobillari, mini-venlar va yuk tashuvchi furgonlar, to'liq vazni 3,5 tonnagacha bo'lgan ISUZU avtomobillari ishlab chiqarishning asosini tashkil qiladi. Bular TFS (4x2) va TFR (4x4) seriyasidagi pikaplardir. Yevropada ular Opel Campo va Vauxhall Bravo nomlari bilan mashxur. AQSH, hamda Lotin Amerikasi davlatlari uchun Chevrolet S-10 rusumiga o'xshash bo'lgan Hombro pikapi mo'ljallangan o'lchami va kabina jixozlari Chevrolet bilan bir xil.

ISUZU mini-venlarining perspektiv bozorlarida, "Lyuks tipidagi" Nissan Elgrand avtomobilining o'xshashi bo'lgan Fargo Filly avtomobili namoyish etildi. Fargo Filly avtomobili Shimoliy Amerikada sotilsa, ikkinchisi esa asosan Yaponiyada sotilmoqda. Fargo Van/ Fargo Bus yuk tashuvchi furgonlar va mikroavtobuslar, hamda yangi oilaga mansub Elf UT avtomobillari faqatgina Yaponiyaning ichki bozorlari uchun ishlab chiqarilmoqda, va eksport uchun chiqarilmaydi. Fargo Van rusumi to'lig'icha Nissan Urvan ga to'g'ri keladi, juda chiroyli yaratilgan yo'lovchi tashuvchi Fargo Bus o'zining svetotexnikasi va tashqi bezak elementlari bilan ushbu rusumdan farq qiladi.

To'liq vazni 3,5 tonnagacha bo'lgan tijorat avtomobillari ro'yxatini mikroavtobuslar, furgonlar, pikaplar va ERVseriyasidagi yuk avtomobillar, NHR-/ NKR-seriyalaridagi kapotsiz Elf lar yakunlaydi. AQSH va Yaponiyada Elf 100 nomi ostida Nissan Condor/Atlas yuk avtomobillari sotilmoqda.

1997-yili AQSHda DMAX, Ltd. kompaniyasi tomonidan dizel dvigatellarini ishlab chiqarish boshlandi, hamda General Motors Isuzu Commercial Truck, LLC kompaniyasiga asos solindi (4-rasm) .



4- rasm. ISUZU avtomobil kompaniyasining Tokiodagi bosh ofisi.

2001-yil may oyida ISUZUning yangi oraliq biznes plani - V-Plan e'lon qilindi. Ward's Communications nomli professional avtobosmaxonaning fikricha Duramax 6600 Dizel dvigateli 10ta eng zo'r dvigatellaridan biri deb tanlangan (bu hodisa keyingi 2002 yilda ham bo'lib o'tdi). V-Plan o'rniga yangi uch yillik biznes reja qabul qilindi.

Bozordagi talabning oshganligiga muvofiq tarzda, hozirgi vaqtda ISUZU, ekologik parametrlari yaxshilangan dizel dvigatellarini ko'plab ishlab chiqarmoqda. ISUZU va General Motors o'rtasida imzolangan kelishuvga muvofiq ISUZU, GM guruhida ushbu sohadagi ekspert sifatida, dizel dvigatellari ustida aktiv tarzda ish olib bormoqda.

Bir muncha muddat oldin ISUZU, amerika konserni General Motorsning aktiv ishtiroki bilan ishlab chiqilgan ISUZU D-Max to'liq o'lchamli pikaplarning yangi lineykasini e'lon qildi. Ikkala kompaniyaning vakillari, ushbu loyiha ikkita avtomobil ishlab chiqaruvchilarning salkam 30-yillik hamkorligining eng muhim bosqichlaridan biri deb nomlashmoqda. Bundan tashqari, oxirgi paytlardi ma'lum bir moliyaviy qiyinchiliklarni o'z boshidan o'tkazayotgan ISUZU kompaniyasining taqdiri ushbu yangilikning muvaffaqiyat qozonishiga bog'liq. Avtomobillar ishlab chiqarishni ISUZU yangi avtomobilining asosiy iste'molchisi bo'ladigan Tailanddagi GM zavodiga ko'chirishni rejalashtirilmogda. ISUZU kompaniyasi pikap va yo'ltanlamas avtomobillarini ishlab chiqarishni Yaponiyadan aynan shu davlatga to'lig'icha ko'chirib o'tkazishni rejalashtirmogda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirda ISUZU Motors asosan tijorat va yuk avtomobillari, avtobuslar va dizel dvigatellari ishlab chiqarmoqda. Asosiy ishlab chiqarish hajmi Yaponiyaning o'ziga to'g'ri kelsada, dunyoning o'ndan ortiq davlatlarida ISUZU avtomobillari yig'iladi. Kompaniya tizimida jami 8 mingdan ortiq xodimlar ishlamoqda.

2018-moliya yilida ISUZU 650 mingga yaqin avtomobil sotdi, olingan sof foyda miqdori esa 1 mlrd dollardan ko'proqni tashkil qildi.

Kompaniyaning kelgusi rejalarida D-Max pikaplari muhim o'ringa ega. Bu modelni ISUZU bir necha o'n yillik hamkori - General Motors bilan birgalikda ishlab chiqqan. Modelning uchinchi avlodi Tailanddagi GM zavodida yig'iladi. Ayni shu pikap Samarqandda ham ishlab chiqarila boshlash arafasida (5- rasm).



5-rasm. 2020 yilda ishlab chiqilgan ISUZU D-Max pikapi.

O'zbekiston ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga oshirmogchi

«ISUZU Motors» Samarqand avtomobil zavodining texnologik hamkori hisoblanib, zavodda ishlab chiqariladigan avtobus, o'rtacha tonnarhidagi yuk va maxsus mashinalar va boshqa tijoriy texnikaga shassi va dvigatellar etkazib beradi.

1996-yilda ochilib, 1999-yildan avtomobil ishlab chiqara boshlagan «SamKochAvto» O'zbekiston-Turkiya qo'shma korxonasi 10 yil faoliyat yuritgach, 2006-yilda Samarqand avtomobil zavodi («SamAuto» MCHJ)ga aylantirilgan va O'zbekiston Turkiya kompaniyasi aksiyalarini sotib olib, zavodda «Uzotoyo'l» markali avtomobillar ishlab chiqarilishi to'xtatilgan edi.

O'sha yildan boshlab «SamAvto» «ISUZU Motors» bilan hamkorlik qilib keladi. 2007-yil yanvaridan Samarqanddagi zavodda ISUZU shassisli bazasidagi avtomobillar chiqarila boshlandi.



6-rasm. Samarqanddagi zavodning 30 minginchi avtomobili siqilgan tabiiy gazda harakatlanuvchi HC45 rusumli avtobus (2017 yil).

2015-yilda zavod siqilgan tabiiy gazda yuruvchi ilk avtobusni chiqardi. Shu yili «ISUZU Motors» «SamAvto»ning 8 foiz aksiyasini sotib oldi. Yaponiyaning «Itochu» korporatsiyasi esa 2007-yildayoq Samarqanddagi zavod ta'sisчисiga aylangan edi, bugungi kunda uning ham «SamAvto» ustav kapitalidagi ulushi 8 foizni tashkil etadi.

Yaqinda yapon kompaniyasining Samarqand avtozavodida ishlab chiqarish hajmini ikki barobardan ham ko'proqqa oshirish rejasi borligi ma'lum bo'ldi (7- rasm).

«Hozir bu zavodda yiliga 3-4 ming avtomobil ishlab chiqarilayapti. Bu ko'rsatkichni yiliga 10 mingtagacha yetkazish rejamiz bor», - dedi «ISUZU Motors» rasmiy vakili Yasuyuki Nijima.



7-rasm. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan ISUZU avtomobil zavodi na'munalari.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Hozirgi kunda mazkur korxonada "O'z Otayo'l" hozirgi nomlanishi "ISUZU" seriyasidagi to'rt xildagi avtobuslarni va yana shuncha xildagi yuk mashinalarini ishlab chiqarmoqda. Ahamiyatli tomoni shundaki, bu yerda ishlab chiqarilgan yuk mashinalariga deyarli har qanday turdagi kuzovlarni o'rnatish mumkin: ichimliklar, non, pochtani tashish, texnik yordam, samosvallar, paxta tashish, suv tashish, benzin tashish, chiqindilarni tashish va boshqalar.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ISUZU yuk avtomobili texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha qo'llanma.
2. Kirish rejimi: <https://uzavtosanoat.uz/ISUZU.html>. Murojaat sanasi – 19.10.2025 y.